

SHO'RO DAVRIDA TASAVVUFNING ASRAB QOLINISHIDA ZIYOVUDDINKHON ESHONNING ROLI

*Bo'ldiyeva Sobira Rajabovna, Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil
tadqiqotchisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi*

THE ROLE OF ZIYOVUDDINKHON ESHON IN PRESERVING SUFISM DURING THE SOVIET ERA

*Bo'ldiyeva Sobira Rajabovna, Independent Researcher at Bukhara State
Technical University, Member of the Writers' Union of Uzbekistan*

РОЛЬ ЗИЁВУДДИНХОНА ЭШОНА В СОХРАНЕНИИ СУФИЗМА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

*Болдиева Собира Раджабовна, независимый исследователь
Бухарского государственного технического университета, член
Союза писателей Узбекистана*



<https://orcid.org/0009-0001-9916-9118>

9118

e-mail:

buldiyevasobira@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Sho'ro tuzumi davrida diniy ta'limda cheklovlar bo'lganligi, ibodat paytida sunnatni amalga oshirmaslik talab qilingani, shunday bo'lishiga qaramasdan Ziyovuddinxon Eshon sunnat unutilishiga yo'l qo'ymay, tasavvufni yashirincha davom ettirganligi haqida ma'lumot beriladi. Abdug'afur Razzoqovning Mir Arab madrasasini tomomlab Imom Buxoriy nomidagi oliy mahadda Ziyovuddinxon Eshondan tahsil olish jarayonida, ustozning tasavvufni himoya qilishdagi fidoyiliklariga guvoh bo'lgani, xojagon-naqshbandiya ta'limotini saqlab qolishda faoliyat olib borganligi haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Qur'on, tasavvuf, Ziyovuddinxon Eshon, Abdug'afur Razzoqov, sho'ro, vahobiylik, mavlud, tariqat, din, sunnat.

Abstract: The article provides information about the restrictions on religious education during the Shura regime, the requirement not to perform the Sunnah during worship, and despite this, Ziyovuddinkhan Eshon did not allow the Sunnah to be forgotten and continued Sufism secretly. It is said that Abdugafur Razzaqov, after graduating from the Mir Arab madrasah and studying under Ziyovuddinkhan Eshon at the Imam Bukhari Higher Academy, witnessed the teacher's dedication in protecting Sufism, and worked to preserve the teachings of the Khojagon-Naqshbandi.

Keywords: Quran, Sufism, Ziyovuddinkhan Eshon, Abdugafur Razzaqov, Shura, Wahhabism, Mawlid, Tariqat, Religion, Sunnah.

Аннотация: В статье рассказывается об ограничениях на религиозное образование в период правления Советов, о требовании не читать Сунну во время богослужения, и несмотря на это, Зиёвуддинхан Эшон не допускал забвения Сунны и тайно продолжал изучать суфизм. Сообщается, что Абдугафур Раззаков, окончив медресе Мир Араб и обучаясь у Зиёвуддинхана Эшона в Высшей академии имама Бухари, стал свидетелем преданности учителя делу защиты суфизма и работал над сохранением учения Ходжагон-Накибанди.

Ключевые слова: Коран, суфизм, Зиёвуддинхан Эшон, Абдугафур Раззаков, Шура, ваххабизм, маулид, тарикат, религия, сунна.

Kirish. Bugungi kunlarga qadar bo'lgan qariyb ikki yuz yillik tarix, odamni fikrlashga undaydi. Gap e'tiqodni unuttirishga, o'zlikni esdan chiqarishga bo'lgan sa'y-harakatlar davri masalasida. Chor Rossiyasining vassaliga aylanish va undan keyingi sho'ro tuzumi hukmronligining boshlanishi bilan mafkuramizga, dinimizga tazyiq boshlangani

sir emas. Natijada shu davrda dunyoga kelgan, e'tiqodan musulmon dinida bo'lgan Turkiston o'lkasining farzandlari islom dini ma'rifatidan mosuvo bo'lib o'sdik. Bugungi tafakkur bilan o'ylab ko'rilsa, biz dinni bilmasdan yashaganimiz ma'lum bo'ladi. Ammo, ayrim paytlarda "hayit", "arafa"... kabi so'zlarni eshitardik. Janozani bilardik, duo

qilishni bilardik. Uzoq o'tmishni elas-elas eslatuvchi bu so'zlar, e'tiqodning, dinning ayrim qoidalari ekanini ham to'liq tushunmasdik. Shunchaki, buni qilish kerakligini tushunardik, xolos. Bu jihatlar shundan darak beradiki, har qancha og'ir vaziyat bo'lmasin, xalqimiz orasidagi ziyoli insonlar dinning butunlay yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaganlar. Bunday insonlardan Ziyovuddinxon Eshon yoki u kishining shogirdi Abdug'afur Razzoqovning faoliyatini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mafkuraga bo'lgan tajovuz, uning bir muddat unutilishi haligacha dunyo va din o'rtasida tafovutlarning barham topmayotganiga sabab bo'lmoqda. Haqiqiy tarix va haqiqiy dinni puxta o'rganishimiz bizni mafkuraviy adashishdan asraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda xojagon-naqshbandiya tariqati qandaydir ilohiylikka asoslangan, ayrim shaxslargina tushuna oladigan yo'l bo'lib qolmasdan, komil inson g'oyasini ilgari suruvchi ta'limot ekanligi sir bo'lmay qoldi. Xojagon-naqshbandiya ta'limoti aynan mana shu komil inson bo'lish haqida ta'lim berar ekan, bu borada yurtimizda mustaqillik yillarida manbalar tarjima bo'ldi va tadqiqotlar olib borildi. Manbashunos olim Mahmud Hasaniy shogirdlari M.Razzoqova K.Qilichova tomonidan Abdulxoliq G'ijduvoni haqida asarlar nashr etildi. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek Gulchehra Navro'zova xojagon-naqshbandiyaga oid monografiya va risolalar nashr etganlar.

Dinimizning keyingi, ya'ni sho'ro davri tarixiga oid islomshunos Uyg'un G'afurovning monografiyasi, Mir Arab madrasasi bitiruvchilari haqidagi to'plam, "Oltin silsila" turkumida yetti pir hayoti va ta'limotiga bag'ishlangan asarlar chop etilgani tadqiqotimizni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamda Ziyovuddinxon Eshon haqidagi ma'lumotlarni to'plashda, u kishining bevosita shogirdi bo'lgan Abdug'afur Razzoqov bilan muloqotda bo'lib suhbat qildik. Suhbat asosida aniqlangan ma'lumotlarni tarixiylik, mantiqiylik, qiyoslash uslubida tahlil etib xulosalarimizni bayon etdik.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan 1943-yildan keyingi vaziyatda "...1943-yil mayda Kommunistik Internatsionalni tugatish to'g'risida Qaror qabul qilgan, vijdon erkinligi, diniy marosim va ibodatlariga to'siqlarni

olib tashlashiga to'g'ri kelgan edi. Aslida esa, provaslav cherkovlari, musulmon o'lkalarda masjid va madrasalarning bu davrda faoliyatini qayta boshlashi urush yillarida o'z otalari, erlari, o'g'illari kabilardan ajralgan millionlab insonlarning xohish-irodasi tufayli yuz bergan edi". Tarixiy davr shuni taqozo qildiki, jamoat a'zolari o'rtasida sinfiy dushmanlik va diskriminatsiya (kamsitish) siyosatini davom ettirish sovet davlati uchun faqat zarar bo'lar edi. Yuqorida qayd etilgan qarorda bildirilgan fikrlardan bilish mumkinki, bu davrga kelib, mutlaqo dinsizlik asosiga qurilgan sho'ro tuzumida qisman bo'lsa-da diniy erkinlikni amalga oshirishi zarurati paydo bo'lgan edi (ushbu vaziyat haqida "G'ulomjon Izomiy xojagon-naqshbandiya tariqati davomchisi" nomli maqolamizda ma'lumot bergan edik).

Mana shunday tarixiy davrda xojagon-naqshbandiya tariqatining asrab qolinishida ziyolilarning xizmatlari kattadir. Tariqatda sobit insonlardan biri Mufti Eshon Boboxonning o'g'li Ziyovuddinxon (1908-1982) hisoblanadilar. U kishi bergan ma'lumotlarga ko'ra:

Ziyovuddinxon dastlabki bilimni o'z oilasida oladilar. Bolalik xotiralarini eslab, bu haqda shunday der ekanlar: "Mening Qur'onim yo'q edi. Buvim sandig'idan zebigardonini olib, bozorga chiqarib sotdilar. Puliga Qur'on olib berdilar. Ana shu tariqa Qur'ondan savodim chiqdi". Shundan keyin Ziyovuddinxon bir muddat Tahfuzul Qur'on madrasasida tahsil oladilar. Bir muddat Buxoroda Domla Izomiydan tahsil oladilar. 1920-yillarda Toshkentda Ko'kaldosh madrasasida tahsil oladilar. 1947-1948-yillarda Ziyovuddinxon ibn Boboxon Al-Azhar universitetiga Qori Minhojiddin ismli talaba bilan tahsil olish uchun boradilar. O'qish boshlanganidan bir muncha vaqt o'tib, Al-Azharda sunnatni o'qitmaslik masalasi ko'tariladi.

Buni Ziyovuddinxon shunday eslardilar, deydi Abdug'afur Razzoqov: "Al-Azharda o'qib yurgan kezlrimizda, bir kuni bir muallim sunnatni o'qimanglar (sunnat namozini) buning uchun qiyomatda men javob beraman, - deb qoldi. Bunga javoban talabalardan biri o'sha paytda, sizni jahannamning qaysi burchagidan topamiz, deb javob qaytardi".

Bu suhbat shundan dalolat beradiki, al-Azharda ham sunniylikka qarshi qarashlar mavjud bo'lgan. Ziyovuddinxon Misrda tahsil olib, sunniylikka qarshi kayfiyatlarga duch kelishiga qaramasdan, tasavvuf himoyachisi edilar.

– Ziyovuddinxon tasavvufni kimdan o'rganganlar?

– Ziyovuddinxon dastlab tasavvufni otalari Eshon Boboxondan o‘rganadilar. Buxoroda o‘qigan kezlari tasavvufdan ta‘lim olishni Domla G‘ulomjon Izomiyda davom ettiradilar. Shuning uchun ham Ziyovuddinxon Eshon tasavvufni yaxshi bilardilar.

Abdug‘afur Razzoqov 1968 yilda Mir Arab madrasasiga o‘qishga kiradi. 1970-1972-yillarda armiya safida xizmat qiladi. Armiya xizmatidan keyin 1973-yilgacha madrasa ta‘limini davom ettirib, uchunchi kursdan Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomidagi oliy mahadda tahsil olishni davom ettiradi. 1975-yilda mahadni tomomlab, oliy ma‘lumotga ega bo‘ladi.

Toshkentda Imom al - Buxoriy nomli oliy mahadda tahsil olish davrida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi muftisi Ziyovuddinxon Boboxonov va ularning noibi Ismoil Maxdumdan dars oladilar. Shuning uchun ham Domla ustozining ilmiy faoliyatiga baho berish bilan mavjud tuzum sho‘ro hokimiyati olib borgan siyosatga e‘tibor qaratadi.

Ushbu vobastalikning sababi asta-sekin dinni unuttirish bo‘lgan. Vahobiylik nazariyalarini yaxshi o‘rgangan kommunistlar, bu aqida ta‘sirida kishilar dinni tark etadi, degan xulosaga kelgan. Chunki, sho‘ro tuzumi g‘oyalari yolg‘on va bid‘atdan iborat edi. Shuning uchun ham din niqobi ostida vahobiylik nazariyalariga keng urg‘u berilishini ko‘zda tutgan edilar.

– Buni qanday isbotlash mumkin, deb o‘ylaysiz?

– Buning isboti oddiy edi. Misol uchun Mufti Ziyovuddinxonga majburan, Mavlid o‘qishni “bid‘at” deb ayting, deb fatvo chiqartirganlar. Mufti fatvo chiqarsa-da o‘zi borib, mavlid o‘qirdilar. Yoki yana namoz o‘qiganda, sunnatni o‘qishni cheklaganlar. Ziyovuddinxon tahoratda sunnatni o‘qib chiqqanlar. Mavlid o‘qimaslik, sunnat o‘qishni cheklashlar vahobiylarning aqidalariga mos keladi. Vahobiylik kommunistlarga qo‘l kelardi. Shuning uchun ham, tasavvuf orqali yolg‘on va yot g‘oyalarga qarshi tasavvuf peshvolari turdilar.

–Ziyovuddinxon ibn Boboxonni bunday amallarni bajarishga undagan narsa tasavvuf edimi?

–Tasavvuf edi, tasavvufni unutmastik. Tasavvuf bor edi. Ziyovuddinxon tasavvufni yaxshi bilardi, o‘zi ham tasavvufda edi. Tasavvuf yashirin edi. Ziyovuddinxon kabi ustozlar uni saqlab qolishda hissa qo‘shdilar. Sunnat tasavvufning ta‘sirida saqlanib qoldi.

–Bir qarashda namozning farzini o‘qishning o‘zi katta savob, deb tushuniladi. Sunnatdan bebahra etilish nimani anglatadi?

–Sunnatdan bebahra bo‘lish – bu Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatini unutish, ya‘ni islomiy mafkuradan uzoqlashishdir. Ko‘pchilik “farzini o‘qisak bo‘ldi, sunnat shart emas” deydi, ammo aslida sunnat Payg‘ambar (s.a.v.) qilgan amallarga ergashish, Alloh va Uning elchisiga bo‘lgan muhabbatni izhor etishdir.

Xulosa. 1943-yil “Tehron konferensiyasi” tufayli Sho‘ro davlatining ateistik siyosati ancha yumshadi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda ayrim masjid va madrasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, dindorlar tayyorlash va diniy kadrlar masalasini hal qilish uchun diniy ta‘limni davom ettirish ko‘zda tutildi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda ilk bor Mir Arab madrasasi 1945-yilda o‘z faoliyatini boshladi. Diniy ta‘lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, sho‘ro hukumatining rejasi asosida o‘qitish tizimi vahobiylikni targ‘ib qilishga yo‘g‘rilgan edi. Ahli sunna val jamoaning e‘tiqodini saqlashda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston muftisi bo‘lgan Ziyovuddinxon Boboxonov tasavvuf ta‘limotiga suyanganlar.

Ziyovuddinxonning tasavvufni saqlashdagi xizmatlariga guvoh bo‘lgan shogirdlari Abdug‘afur Razzoqov ma‘lumot berganlar. Tasavvuf ilmini asrab qolish tufayli komil inson timsoli bo‘lgan payg‘ambar (s.a.)ga bo‘lgan muhabbat saqlangan. U kishining go‘zal axloqi va hayot yo‘llaridan ibrat olish xalqning ma‘naviyatini, imonini yuksaltirgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Hasaniy M, Razzoqova M. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni. Moziydan sado jurnali. 2022-y. 1-24-betlar.
- 2.Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T. 2003-y. 47-bet.
- 3.Hasaniy M., Razzoqova M. G‘ijduvoni ilm ahllari xotirasida. T.: Fan, 2003. 50-bet.
4. Komilov N. Tasavvuf. T.: Movarounnahr. – Ozbekiston, 2009.
- 5.Navro‘zova G. Bahouddin Naqshband. – Buxoro: Falsafa va huquq instituti, 2009. 17-b.
6. Юлдашхаджаев Х. Медресе Мир Араб пятивековой дворец просвещения. Сборник. Т.: 2023г. 207 с.